

## FRAZEOLOGIZMLAR IKKILAMCHI NOMINATSIYANING O‘ZIGA XOS KO‘RINISHNING IFODASI

*S.A.Toshtonov,  
ADCHTI Ingliz tili o‘qitishning  
integrallashgan kursi kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada frazeologizmlar ikkilamchi nominatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishini namoyish etishi, unda millatning till va dunyoqarashi, hissiy-emotsional munosabatlar, urf-odatlar, udumlar kabi omillar ifodalanishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson, olam, gnoseologiya, kognitiv faoliyat, til, fikr, kognitiv tilshunoslik.

**Аннотация.** Фразеологизмы представляют собой особую форму вторичной номинации, в которой отражаются языковое сознание нации, ее мировоззрение, эмоционально-аффективные отношения, обычаи и традиции.

**Ключевые слова:** человек, мир, гносеология, когнитивная деятельность, язык, мысль, когнитивная лингвистика.

**Annotation.** Phraseologisms represent a special form of secondary nomination, in which the linguistic consciousness of a nation, its worldview, emotional-affective attitudes, customs, and traditions are reflected.

**Keywords:** human, world, epistemology, cognitive activity, language, thought, cognitive linguistics.

Inson va olam munosabati gnoseologiyaning bosh mavzusi sanaladi. Inson o‘zini qurshab turgan olam bilan birga o‘zini ham bilishga intiladi. U o‘zini qurshab turgan olamni fragmentar o‘rganadi va ongida in’ikos etadi. Sezgi organlari tashqi olam haqida muayyan axborotlarni miyaga uzatadi. Miya bu axborotlarni umumlashtiradi va qayta ishlaydi. Inson moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini ajratgan holda ongda aks ettirish imkoniyatiga ega<sup>1</sup>. Bu jarayon psixologiyada intellektual akt deb atalib, u uch fazadan iborat ekanligi e’tirof etiladi: faoliyatni rejalashtirish, uni amalga oshirish va qo‘lga kiritilgan natijani ko‘zlangan maqsad bilan solishtirib ko‘rish<sup>2</sup>.

Insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu jarayonlarning barchasi oxir-oqibat tilda tajalli topgani sababli ularni tadqiq etish tilshunoslikning ham tadqiq muammolaridan biriga aylandi. Chunki “Til – bu fikr uzatishning lisoniy strukturaga “qadoqlangan” vositasidir. Bunda qo‘llaniladigan bilim faqat til haqidagi bilim emas. Bu olam, ijtimoiy voqelik, nutqiy muloqot tamoyillari, adresat va h.k. haqidagi bilimlar hamdir. Bu bilimlarning hech birini boshqasidan ustun deb bo‘lmaydi. Ularning barchasi hamkorlikda bizni lisoniy muloqotning mohiyatini tushunishga yaqinlashtiradi”<sup>3</sup>.

So‘nggi yillarda til hodisalariga “inson – borliq – til” munosabati asosida yondashuv natijasida yuzaga kelgan yangi tadqiq paradigmasi – antropotsentrik paradigma nuqtai

<sup>1</sup> Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Т.: 2007. – Б. 12.

<sup>2</sup> Умумий психология. – Т., 1975. – Б. 211.

<sup>3</sup> Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 4. (Б. 256)

nazaridan til quruq faktlar, modellar yig‘indisi emas, balki shu til tashuvchilarining mental faoliyati, dunyoqarashi, milliy-madaniy mansubligi, e‘tiqodi, qadriyatlarini haqida ma‘lumot beruvchi o‘ziga xos zahiradir. Chunki “har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. ...til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir”<sup>4</sup>

Kognitiv tilshunoslik masalalari bilan shug‘ullanib kelayotgan tilshunos olim V.A.Maslovaning ta‘kidlashicha, “insoniy tajriba kategorizatsiyasi inson kognitiv faoliyati bilan bog‘liqdir, chunki insonning bilish faoliyati davomida olingan va qayta ishlangan mahsulotga aylangan mazmuniy ma‘lumotlar lisoniy shakllar orqali o‘z ifodasini topadi”<sup>5</sup>.

Tilshunos F. Usmonov ham L. Vaysgerberning “tilda u yoki bu lisoniy belgi, ya‘ni tovush ifodasi bo‘lmasa, unga mos keladigan tushuncha ham bo‘lmaydi, turli tilda gaplashuvchi insonlar turli olamlarda yashaydi”, – fikrlariga tayangan holda, “muayyan tilda gaplashuvchi kishilarning o‘zini qurshab turgan olamni bilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga bog‘liq” ekanligini e‘tirof etadi<sup>6</sup>.

Demak, inson ongida in‘ikos etilgan borliq, uning fragmentlari va, umuman, olam haqidagi tasavvurlar til orqali voqelanadi, tilda tajalli topadi. Chunki til boshqa kommunikativ tizimlar ichida semiotik jihatdan eng mukammali bo‘lib, u olam haqidagi bilimlarni, axborotni uzatish va qabul qilish bilangina chegaralanib qolmaydi, balki olingan axborotni qayta ishlash va ularni tartiblash barobarida muayyan lisoniy jamoa xotirasida olam lisoniy manzarasini shakllantiradi.

Olam manzarasini lisoniy shakllar orqali voqelantirish masalasi qadimdan tilshunoslar e‘tiborini tortib kelgan. Buning uchun qadimgi yunon tilshunosligidagi analogistlar bilan anomalistlar o‘rtasidagi munozaralarni eslash kifoya. Ta‘kidlash lozimki, olam manzarasini voqelantirishda metaforalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki metafora “favqulodda amaliydir... undan tavsiflash va izohlash quroli sifatida barcha sohalar – xususan, ruhiy sog‘lomlashtirish suhbatlarda, havo yo‘llari uchuvchilari bilan muloqotda, marosim raqslari-yu, dasturlash tilida, badiiy tarbiya va kvant mexanikasida hech ikkilanmay foydalanish mumkin. Metafora, qaerda uchratishimizdan qat‘i nazar, insonlarning harakatlari, bilimlari va tilini tushunishni oydinlashtiradi”<sup>7</sup>.

Metaforali obraz tildagi semantik jarayonlar asosini tashkil etadi. U insonning ichki kechinmalari, ruhiy holatini namoyon etgan holda, atrof-olam haqidagi bilimlarni umumiy obrazlashgan, nafis tasavvurlar asosida ma‘lum mazmun atrofiga jamlaydi. Chunki metafora ma‘lumotlarni kodlashtirish va ixchamlashtirishga qaratilgan o‘ziga xos kognitiv mexanizmdir. Yu. Stepanov ta‘kidlaganidek, metafora vositasida so‘zlovchi tor doiradan (shakldan) keng olamni (mazmunni) ajratib oladi<sup>8</sup>.

Metaforali obraz asosida olam haqida tasavvur shakllanishining betakror vositalaridan biri – frazeologizmlar. Chunki “tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so‘z, ibora-ifodalarda xalqning mental o‘ziga xosligi muayyan tarzda in‘ikosini topadi. Zotan bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan”<sup>9</sup>.

<sup>4</sup> Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т.: Фафур Фулом, 2012. –Б.10.

<sup>5</sup> Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 9.

<sup>6</sup> Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. докт. (PhD) ...дисс. –Т., 2020. – Б. 16.

<sup>7</sup> Каранг: Теория метафоры: Сборник. – М.: Прогресс, 1990. – С. 6. (512 с.)

<sup>8</sup> Степанов Ю.С. В трёхмерном пространстве языка. – М.: 1985. С. 229.

<sup>9</sup> Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: Маънавият, 2013. –Б. 4. (320 б.)

Shu bilan bir qatorda, “u yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ...insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud. Bu yerda o‘xshashlik va farq, muqaddima va xotima, ko‘plik va birlik, jamlik va yakkalik, kelishmovchilik va kurash; tug‘ilish va o‘lish, qarindoshlik va begonalik, yosh va qari; baholash, muvaffaqiyat – muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg‘on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag‘allik, xato va jazo kabi boshqa ko‘p tushunchalarning tavsif va tasvirlari mavjud. Ko‘rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi”<sup>10</sup>. Ushbu izoxni men quyidagicha tushuntirib beraman:

"Ibora hosil bo‘lishining dastlabki bosqichida muayyan leksik komponentning boshlang‘ich ma‘no intensionali (ya‘ni o‘zak ma‘nosi) o‘zgaradi hamda uning implikatsionali (ya‘ni ma‘noda o‘z-o‘zidan anglashilib turuvchi ma‘noviy komponentlar) faollashadi. Boshqacha qilib aytganda, leksik birlikning metaforik ma‘nosi undagi turg‘un assotsiatsiyalarni aks ettiruvchi belgilar asosida frazeologik birikma hosil qiladi."

Ya‘ni, ibora hosil bo‘lishning boshlang‘ich bosqichida so‘zning bevosita (intensional) ma‘nosi o‘zgarib, uning implikatsion (ma‘noda o‘z-o‘zidan anglashiluvchi) komponentlari faollashadi. Bu jarayon natijasida metaforik ma‘noga ega bo‘lgan so‘z birikmalari (frazeologik birikmalar) shakllanadi.

Demak, bu jarayonda leksik birlikning metaforik ma‘nosida mavjud turg‘un assotsiatsiyalar frazeologik birikmaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Turli tillarda frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘luvchi ikkinchi bosqichda metaforaning roli ortadi. Birliklar bir metaforik markaz atrofida birlashgan jonli obrazli ifodalarning tosh qotgan izlarini namoyon qiladi”<sup>11</sup>.

Frazeologizmlar millatning lisoniy shuuridan o‘rin olgan, uning kognitiv faoliyati natijasida paydo bo‘lgan, olam manzarasini obrazli tassavur yoki metaforik obrazlar orqali aniq va lo‘nda ifodalash vositalaridan biridir.

Boshqacha qilib aytganda, frazeologizmlar ikkilamchi nominatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishini namoyish etadi. Unda millatning till va dunyoqarashi, uning hissiy-emotsional munosabatlari, urf-odatlar, udumlari kabi omillar ifodalangan bo‘ladi.

Shu boisdan, frazeologizmlar orqali millatning milliy mentaliteti, madaniy-tarixiy tajribasi, dunyo-qarashi, dunyo tasavvuri o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan frazeologizmlar milliy-madaniy markaziy tushunchalarni, etnik semantikani, milliy-madaniy konotatsiyalarni aks ettiruvchi muhim til vositasi hisoblanadi.

#### Адабиётлар:

1. Балли Ш. Стилистика французского языка. –М.: УРСС, 2001. – Б. 89 – 90. (392)
2. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Т., 2007. – Б. 12.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2007. – Б. 4.
4. Kabilova Z.M. O‘zbek tilining fonosemantik vositalari. Monografiya. – Andijon, 2023.

<sup>10</sup> Маматов А. Э. Замоновий лингвистика. – Т.: Ношир, 2019. – Б. 135.

<sup>11</sup>Сергеева Л.А., Ван Синьцзюн. Метафора в процессе фразеологизации // <https://cyberleninka.ru/article/n/metafora-v-protseste-frazeologizatsii/viewer> (мурожаат санаси 31.05.23)

5. Kabilova Zebiniso Muratovna. Enklitika. Fonologizatsiya. Emfatik urg‘u. // JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
6. Kabulova Umida Sayidmakhamadovna. Ta’limni insonparvarlashtirish to’g’risida// JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
7. Kabulova, U.S. (2023). “Filologiya” termini haqida. Scienceweb academic papers collection.
8. Muratovna, K.Z., & Sayidmaxamadovna, K.U. (2023). Tilshunoslarning “frazеologik birlik” atamasi haqidagi qarashlari. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 768-772.
9. Маматов А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т.: Фан, 1991.
10. Маматов А. Э. Замоновий лингвистика. – Т.: Ношир, 2019. –Б. 135.
11. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – С. 9.
12. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т.: Фафур Фулом, 2012. – Б. 10.
13. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: Маънавият, 2013. – Б. 4. (320 б.)
14. Поппер К. Знание и психофизическая проблема: в защиту взаимодействия. – М.: изд-во ЛКИ, 2008. (– С. 256); Поппер К. Объективное знание. Эволюционный подход. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. (С. 384)
15. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: Фан, 1970. – Б. 56.
16. Sayidmaxamadovna, K.U., & Muratovna, K.Z. (2023). “Frazеologizm” atamasi haqida. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 711-715.
17. Сергеева Л.А., Ван Синьцзюн. Метафора в процессе фразеологизации // <https://cyberleninka.ru/article/n/metafora-v-protsesse-frazеologizatsii/viewer>
18. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М.: Пргресс, 1977. – С. 157. (695 С.)
19. Степанов Ю.С. В трёхмерном пространстве языка. – М.: 1985. С. 229.
20. Умумий психология. – Т., 1975. – Б. 211.
21. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. докт. (PhD) ...дисс. – Т., 2020. –Б. 16.
22. Ганиева Ш. Ўзбек тили фразеологизмларининг структур тадқиқи. –Т.: Фан, 2013. – Б. 33.
23. Қаранг: Теория метафоры: Сборник. – М.: Прогресс, 1990. – С. 6. (512 с.)